



ISSUES OF DEVELOPING STUDENT CREATIVITY IN SCHOOL CONDITIONS

Omadbek Xursanov Ulug'bek o'g'li ¹

¹ Namangan State University Pedagogical Theory and
1st year master's degree in history

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4715591>

ARTICLE INFO

Received: 19th April 2021
Accepted: 21st April 2021
Online: 23rd April 2021

KEY WORDS

creativity, knowledge, school, education, labor, research, idea, skill, development

ABSTRACT

The article provides ideas and feedback on the development of creative teaching in the school environment.

O'QUVCHILARNI MAKTAB SHAROITIDA IJODKORLIKGA O'RGATISHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Omadbek Xursanov Ulug'bek o'g'li ¹

¹ Namangan Davlat Universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 13-aprel 2021
Ma'qullandi: 17-aprel 2021
Chop etildi: 19-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

ijodkorlik, bilim, maktab, ta'lim-tarbiya, mehnat, izlanish, g'oya, ko'nikma, rivojlanish

ANNOTATSIYA

Maqolada o'quvchilarni maktab sharoitida ijodkorlikga o'rgatishni rivojlantirish mavzusida fikr va mulohazalar keltirilib o'tilgan.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni bolalaikdan boshlash tavsiya etiladi. Deyarli har doim (hatto ba'zan ongsiz ravishda) shaxs yaratishga intiladi. Shu sababdan yangi g'oyalarni izlash shaxsiy o'sish va o'z-o'zini anglashning asosiy shartlaridan biridir. Har bir inson ajoyib ijodiy salohiyatga ega. Anashu salohiyatni erta namoyishi uchun

shart-sharoit yaratilsa, qobiliyatlar rivojlanishi ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Bu albatta kelajakdagi faoliyatga ijobiy ta'sir qiladi. Ijodkorlik qobiliyatlari-insonning o'ziga xos xususiyatlari, unga qandaydir bir faoliyatni o'zlashtirishga imkon beradi. Ular bilim va ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liq lekin bir xil emas. O'quvchilarni maktab



sharoitida muayyan harakatlarda ishtirok etishi, u tegishli faoliyat bilan shug'ullana boshlaganidan keyin bo'ladi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari tufayli ilgari mavjud bo'lmagan yangi narsalarni yaratish mumkin bo'ladi. O'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyati turli sohalarda o'zlarini namoyon qila olishlari uchun maktab sharoitida o'quvchiga e'tibor vca imkoniyat berish maqsadga muvofiqdir. Agar e'tibor berilsa o'quvchilar o'z ijodkorlik qobiliyatlarini turli sohalarda namoyish qilishlari mumkin. Masalan, texnik, musiqiy, badiiy va boshqa sohalarda. O'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish boshlang'ich sinflardan boshlanishi tavsiya etiladi. O'quvchilarning tabiiy iste'dodlarini rivojlantirish uchun turli usullar va mashqlar mavjud. O'quvchini doimiy qo'llab-quvvatlash, o'z kuchiga bo'lgan ishonchini ortib borishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonda ota-ona va o'qituvchining hamkorlikdagi ishi yaxshi natija beradi. Maktab sharoitida o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish ularni ijodkorlikka o'rgatish uchun pedagoglar tomonidan muntazam maxsus mashqlar, treninglar o'tkazilib borilsa, o'quvchilar qo'shiq aytishi, she'r yozishi yoki chiroyli san'at asarlarini yaratishi mumkin. Ijodkorlikka o'rgatish hayot davomida doimiy davom etishi kerak. Bu insonda natijalarni ko'payishi va mustahkamlanishiga, faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi. Insonning kamolaotga erishishiga yordam beradi. Maktab sharoitida o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida pedagoglar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

- O'quvchidagi ixtirochilikni ragbatlantirish
- Har bir o'quvchidagi o'ziga xoslikni erta anglay bilish
- "Aqliy hujum" orqali o'quvchidagi ijodkorlikni boyitib borish

- O'quvchining ijodiy jarayonini chetdan turib kuzatib borish

- O'quvchining ijodkorligi bilan bog'liq o'zini tutishidan xabardor bo'lish

- Ijodkorligi uchun o'quvchidan minnatdor bo'lish

- Ijodkorlikni doimo qo'llab-quvvatlash

O'quvchilardagi ijodkorlikni rivojlantirishning natijasida biz o'quvchilarda ilgari mavjud bo'lmagan, g'oyalar va yangiliklarni ko'rishimiz mumkin. Pedagoglar ham o'z navbatida ijodkorlik xususiyatiga ega bo'lishi, bu ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy natija beradi. Pedagog avvalo o'quvchiga o'zi na'muna o'rnak bo'la olishi kerak. Ijodkorlik qobiliyati pedagogda ham qaysidir bir sohada rivojlangan bo'lishi bu uning yutug'i hisoblanadi. "Bilimni aql uchun oziq-ovqat deb hisoblasak, unda ijodkorlikni ruh uchun oziq-ovqat deb hisoblasak bo'ladi"-degan edi allomalarimizdan biri. Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab yurtimizda ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Yoshlarimizni keng, yorug, shinam, barcha qulayliklarga ega sinf xonalarida bilim olishlari uchun yangi zamonaviy maktablar qurilib foydalanishga topshirildi. Bu maktablarda bilim olayotgan yoshlarni ijodkorligini qo'llab-quvvatlash va ularni yuzaga chiqarish uchun pedagoglar zimmasiga yangi mas'uliyatlar yuklatildi. Manashu mas'uliyatni amalga oshirish jarayonida pedagoglar o'zlarining bilim va malakalarini boyitib boradilar. Bugungi kunda har bir o'quvchining ijodkorlikka o'rgatish va o'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanilmoqda. Ijodkorlikka o'rgatish masalasi maktablarda boshlang'ich sinflarda amalga oshirish maqul sanaladi haqida yuqorida aytib o'tdik. O'quvchilarda ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish hamda rivojlantirishda pedagoglarda ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, uni ro'yobga



chiqarishda nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat ijodkorlikni talab etiladi. O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda maktabda tashkil etiladigan to'garaklarni ham ahamiyati juda katta hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini faollashtirish, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarda ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqishni shakillantirish o'ziga xos o'rin tutadi. Pedagogik kuzatishlardan ma'lumki, o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish muayyan bosqichlardan o'tishni talab qiladi. O'quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni ma'naviyati va ijodkorlik madaniyatini boyitish ko'p jihatdan pedagogda shakillangan ijodkorlik sifatlariga bog'liq. O'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash uchun, eng avvalo uning maqsadlarini belgilab olish zarur. O'quvchilarda ijodkorlikni yo'lga qo'yishni muhim jihatlaridan biri –bu o'quvchilardagi yangi g'oyalarni amalga oshirish uchun imkon berishdir. Bu orqali o'quvchi o'z g'oyalarini “oxiriga yetkazish” ni o'rganadi, ya'ni yangi yechimni sinab ko'rish, asoslash, tadbiq qilishga oid ko'nikmalar o'quvchida rivojlanib boradi. O'quvchilar ta'lim jarayoni va darslardan tashqari jarayonlarda ham ijodkorlik nechog'lik muhim ekanligini anglab yetadilar. Maktab sharoitida o'quvchilardagi ijodkorlikni tarbiyalashda, ijodkorlik tarbiya jarayonini tashkil etishni

aniq yo'nalishlari bo'yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli tadbirlarni ishlab chiqish, ijodkorlik tarbiyasini zamon talablari darajasida tashkil eta oladigan pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalar yotadi. Bu masalarni yechish orqali biz maktablarda o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgata oladigan ishonchli kadrlar bilan ta'minlanishga muvofaq bo'lamiz.

Xulosa o'rnida maktab sharoitida o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatish orqali biz o'quvchidagi yashirin qirralarnim ochishimiz va yangiliklarni kashf qilishimiz mumkin. Har bir o'quvchining o'zgacha bo'lgan ijodkorlik qobiliyati bor. Ana shu ijodkorlikni yuzaga chiqarish, o'quvchini qobiliyatini rivojlantirib unga motivatsiya berib borish maktabda ta'lim-tarbiya jarayonlarida olib borilishi lozim. Mamlakatimiz bugungi kunda barcha sohalarida jahonga yuz tutayotgan ayni damlarda bizlarga ijodkorlik juda ham zarur. Sababi, ijodkorlik tufayli yangiliklar, yangi g'oyalar, yangi asarlar yangi texnik qurilmalar yoki yangi texnologiyalar paydo bo'ladi. O'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish jarayonida ularda mehnat qilish, mehnatni o'rganish ko'nikmalari ham shakillanib boradi. O'z fikrini erkin ayta olish, yangiliklarga intilish kabi ijobiy sifatleri ham rivojlanadi. Bir so'z bilan aytganda maktablarda o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatish va ulardagi qobiliyatlarni rivojlantirib borish ta'lim sohasidagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'. M. Asqarova “Pedagogika” “Talqin”nashriyoti 2008-yil.
- 2.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Uslubiy qo'llanma. 2014-yil
3. Internet saytlari.